

**V-VI SINFLAR VA BOSHLANG'ICH SINFLAR
MATEMATIKA KURSIDA GEOMETRIYA ELEMENTLARINI
O'RGAATISHDA UZVIYLIKNI O'R NATISH**

Ikromova N.A.

Andijon viloyati, Buloqboshi tumani PKXM o'qituvchisi

Mamajonova M.B.

Andijon pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Maqlolada maktab matematika kursida geometriya elementlarini o'rgatishda uzviylikni amalaga oshirish bo'yicha mulohazalar keltirilgan

Kalit so'zlar: geometriya, nuqta, to'g'ri chiziq, kesma, egri chiziq, siniq chiziq, simmetrik to'g'ri chiziqlar, burchak, ko'pburchak, aylana, uzviylik.

Umumiy o'rta ta'limining ikkinchi avlod davlat ta'lim standartlari talablari asosida boshlang'ich sinflar matematika kursiga bir qator yangi tushunchalarni kiritilishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining nazariy va uslubiy tayyorgarligini takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi.

Lekin ta'lim tizimini takomillashturishning muhim xususiyatlaridan biri- bu o'quvchilarga ko'p sondagi konkret bilimlar asosida tegishli ko'nikmalarni tarkib toptirish emas, balki ularni universal bilim bilan qurollantirish asosida rivojlanturish va kamolotga etkazishga shart-sharoit yaratish, ya'ni "o'qishga o'rgatish"ga qaratilgandir

Mamlakatimizda kiritilgan uzlusiz ta'lim tizimining boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar) bosqichida o'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim olishi uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslari shakllantiriladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflar va V-VI sinflar matematika kursida o'rganiladigan o'quv materiallari, xususan, geometriya elementlarini o'rganishda uzviylikni o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy o'rta ta'lim mifiktabida matematika o'qitishning tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki boshlang'ich ta'lim va umumiy o'rta ta'limning V-VI sinflarida uzviylikni o'rnatishda yo'l qo'yilayotgan ta'lim mazmuni, shakli va uslublaridni qo'llashdagi kamchiliklar o'quvchilarning matematik bilim darajasiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Bundan tashqari, boshlang'ich mifiktabni bitirgan o'quvchilarning yuqori sinflarda matematikadan o'rganilishi zarur bo'lgan o'quv materiallar xajmi keskin

ortgani uchun, dastlabki vaqtarda qo'llanilayotgan ta'lim shakli, mazmuni va uslublariga moslashishi qiyin kechmoqda va bu holat ularning matematik bilimlari darajasiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Boshlang'ich sinflar va V-VI sinflar matematika kursida geometriya elementlarini o'rganishning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari o'rganilishi lozim bo'lgan geometrik ma'lumotlarning hajmi, joylashishi, o'quvchilarda tarkib toptirilayotgan geometrik bilimlarni umumlashtirish darjasasi, tarkib toptirilayotgan ko'nikma va malakalar darjasasi bilan xarakterlanadi.

Boshlang'ich sinflarda geometrik figuralar (nuqta, to'g'ri chiziq, kesma, egrи chiziq, siniq chiziq, simmetrik to'g'ri chiziqlar, burchak, ko'pburchak, aylana, doira va b.) ni o'rganish natijasida o'quvchilarda ular to'g'risidagi tasavvurlar tarkib toptirilib, kengaytirib boriladi.

V-VI sinflarda geometriya elementlarini o'rgatishning asosiy maqsadi, asosan o'quvchilarining boshlang'ich sinflarda olgan bilimlarini aniqlashtirish, kengaytirish va chuqurlashtirishdan iborat bo'lib, bundan tashqari yangi geometrik figuralar (masalan, parallel to'g'ri chiziqlar) va yangi miqdorlar (masalan, aylana uzunligi, burchak kattalagi va xokazo) o'rganiladi.

Figura yuzasini o'rganish misolida uzviylikni amalga oshirishni ko'rib o'taylik. Dastlab 1-sinfdan boshlab uzoq muddat davomida o'quvchilar ongida figura yuzasi xaqidagi tasavvurlarni tarkib toptirishga xizmat qiladigan o'quv materiallari: figurani qismlarga bo'lish, qismlardan yangi figura yasash, figurada joylashgan katakchalarni sanash o'rganilib, so'ngra o'quvchilar to'g'ri to'rtburchak yuzasini hisoblashni o'rganadilar, yuza birliklari kiritiladi. 5- sinfdan boshlab, o'quvchilar figuralarning yuzalarini hisoblashga doir ko'plab misollar bilan tanishib, yuza o'lchov birliklari, xususan, yer maydonlarning yuzasini o'lhash birliklari bilan tanishadilar. O'quvchilarda yuza haqida xosil qilingan bilimlarga tayangan xolda, konkret uchburchaklar yuzasini hisoblashga doir misollar yechiladi. 6- sinfdan o'quvchilar doira yuzasi formulasi bilan tanishadilar. Boshlang'ich sinflar matematika kursida figura yuzasini o'rganishga doir o'quv materialini o'rganishga amaliy yondashish 5-6 sinflarda boshqa geometrik figuralar yuzalarini o'rganish uchun asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son Qarori // <https://lex.uz/docs/3153714> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (Murojaat sanasi: 05.03.2018).
2. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘Y uchun darslik). – Toshkent: Turon “Iqbol”. 2016 yil. – 426 b.
3. Mamadjanova M.K. The role of logical tasks in teaching primary schoolchildren in mathematics. International Scientific Journal Teoretical & Applied Science. Philadelphia, USA. №02(70) ,2019. – p.89-91.